

THE ROLE OF PROCESSING AND STORAGE PROCESSES IN THE FOOD SUPPLY CHAIN

MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH VA SAQLASH JARAYONLARINING OZIQ-OVQAT TA'MINOTI ZANJIRIDAGI TUTGAN O'RNI

РОЛЬ ПРОЦЕССОВ ОБРАБОТКИ И ХРАНЕНИЯ В ЦЕПОЧКЕ ПОСТАВОК ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

Nutfulloyev Tolib G'olib o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Magistratura bo'limi MBA-10 talabasi

Telefon: +998914455601

nt.nutfulloyevtolib@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi dunyoda oziq-ovqat tanqisligi keskin ortib bormoqda, bunga asosiy sabablardan biri esa oziq-ovqat mahsulotlarining noteng taqsimlanishi va kata hajmdagi mahsulotlarning isrof qilinishidir. Mazkur tezis oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash faoliyatining ta'minot zanjiridagi o'rni va ahamiyatini qisqacha ochib beradi.

Kalit so'zlar: ta'minot zanjiri, qayta ishlash, saqlash, logistika markazi, oziq-ovqat xavfsizligi

Ключевые слова: цепочка поставок, переработка, хранение, логистический центр, продовольственная безопасность

Key words: supply chain, processing, storage, logistics center, food security

Oziq-ovqat sanoati insonlarning aktiv hayotini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Yetishtirilgan hosil yakuniy iste'molchiga borgunicha bir necha bosqichlardan ya'ni hosilni yig'ishtirib olish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, yetkazib berish va chakana savdo nuqtalarida sotish bosqichlaridan o'tadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyo bo'yicha yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi tashlab yuoriladi va isrof qilinadi. Isrof qilingan oziq-ovqat mahsulotlarning uchdan ikki qismi ta'minot zanjiri jarayonida sodir bo'ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yaqinda e'lon qilgan Global oziq-ovqat yo'qotishlari va oziq-ovqat isrofgarchiliklari to'g'risidagi hisobotga ko'ra, oziq-ovqat taminot zanjirining samarasiz tashkil etilganligi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qotilish darajasi 1.4 mlrd. tonnani tashkil etadi.¹ Oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qotilishi va isrof qilinishi oziq-ovqat xavfsizligiga, iqtisodiyot va atrof muhitga jiddiy salbiy ta'sirga ega. Dunyo bo'yicha isrof qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy qiymati taxminan 1 trln. AQSh dollarini tashkil etadi.² Oziq-ovqat mahsulotlarining isrof qilinishi natijasida bozorlardagi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi kamayib ketadi va buning natijasida narxlar oshadi va kam daramadli insonlarning xarid quvvati yanayam pasayib ketadi. Bundan tashqari, no'to'g'ri saqlash va qayta ishlash natijasida mahsulot sifati keskin tushib ketishi va oqibatda bunday mahsulotni yoki arzon narxda sotish yoki tashlab yuborishga ham to'g'ri kelishi mumkin. Buning natijasi esa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchilarning daromadlariga keskin ta'sir qiladi. Qayta ishlash va saqlash jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish mahsulotning uzoq muddat sifatli saqlanishiga sabab bo'ladi va buning natijasida mahsulotni uzoqroq hududlarga ham yetkazib berish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

¹ <https://supplychaindigital.com/logistics-1/billions-tons-food-wasted-global-supply-chain> 2020

² FAO. 2020. Global Initiative on Food Loss and Waste Reduction. Rome, FAO. <http://www.fao.org/3/a-i4068e.pdf>

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchilar dididan kelib chiqqan holatda ular uchun kerakli va qulay bo'lgan tovarlarga aylantiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashlarsiz zamonaviy shahar aholisini bunga bo'lgan talabini qondirishning imkoni bo'lmas edi va yana mahsulotlarni tanlash faqatgina mavsumiy bo'lib qolardi. Mamlakatimizda yiliga 20 mln. tonna meva va sabzavotlar yetishtiriladi. Ammo, bundan bor yog'i 15%igina sanoat darajasida qayta ishlanadi va buning 7-8%i eksportga yo'naltiriladi. Yig'ish va saqlash jarayonida esa yetarli infrastrukturaning mavjud emasligi tufayli meva va sabzavotlarning kamida 30%i nobud bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 31 ta agro logistika markazi va 1.5 mingta muzlatkichxonalar mavjud. Lekin, bu muzlatkichxonalar mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva va sabzavotlarning bor yog'i 4.5%ini qamrab oladi xolos.³

Dunyo bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan olingan tovar turlari juda ko'p, masalan, meva va sabzavotlar murabbosidan tortib formasevtika va kosmetikada ishlatiladigan quruq kukun ko'rinishiga keltirilgan mahsulotlar, va ya'na pishirish uchun yarim tayyor holatga keltirilgan masaliqlar va boshqa bir qator mahsulotlarni keltirish mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali ular qiymatini 10 barobardan 100 va undan ko'p barobargacha oshirish mumkin bo'ladi, bunda olinadigan mahsulot va qo'llanilayotgan texnologiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Saqlash jarayolarining hozirgi kunga kelib bir qator yechimlari mavjud bolib, bundan vakuumli muzlatkichxonalarda saqlash keng tarqalgan hisoblanadi. Lekin, bu turdagi muzlatkichxonalar qurish va saqlash yuqori qiymat sarf qiladi, va yuqori infratuzilma sharoitlarini talab qiladi.

Ta'monot zanjiri jarayonida oziq-ovqat mahsulotlarini kam yo'qotishlarsiz va kam xarajatlarsiz yetkazib berish muammolarining bir qator yechimlarini taklif qilishimiz mumkin. Bunda ta'minot zanjirining har bir bo'g'iniga alohida yondashgan holatda va mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holtda chora ko'rish kerak:

Birinchi navbatda, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini yaxshilash va joylarga yaqin hududlarda saqlash va qayta ishlash infratuzilmalarini shakllantirish. Chunki, hosilni qayta ishlash korxonalriga yetkazib berilguncha ko'pincha mahsulotning 5-10%gacha yo'qotilishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, davlat infratuzilma obyektlarini qurishga investitsiyalar ajratishi va dehqon va fermerlar uchun bozorlarga erkin kirishini ta'minlanishi, bundan tashqari qayta ishlash va saqlash sohalariga xorijiy investitsilarni jalb qilinishini qo'llab-quvvatlovchi siyosat olib borishi zarur. Shundagina, oziq-ovqat mahsulotlarini behudaga yo'qotilishi va isrof qilishni oldini olishga yetarlicha imkon paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maryam Rezaei, Bin Lui "Food loss and Waste in the food supply chain" – Feature articles – 2020. 26-27-p
2. Ray Zhong and Xun Xu, Lihui Wang – "Food supply chain management: systems, implementations, and future research" – Emerald Publishing – 2019. 2085-2114-p.
3. Saeed Nosratabadi, Amirhosein Mosavi, Zoltan Lakner "Food Supply Chain and Business Model Innovation" Multidisciplinary Digital Publishing Institute – 2020. www.mdpi.com/journal/foods
4. Nutfulloyev T. G'. – "Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy samaradorligi va ahamiyati" – TDIU 90 yoshda: Tarix, bugungi kun va istiqboldagi odimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumannning maqola va tezislar to'plami – 2020. 310-318-b.
5. Д.С.Косимова, С.Гульманов.Стратегическая эффективность управления потенциалом регионального агропромышленного комплекса // Региональная экономика: теория и практика. – 2020. – Т. 18, № 5. – С. 951 – 965. <https://doi.org/10.24891/re.18.5.951>
6. Д.С.Косимова. Эффективность управления потенциалом регионального агропромышленного комплекса. "Минтакалар экспорт салоҳиятини оширишда

³uzdaily.com/ru/search?q=Modern%20agro%20logistics%20centers%20to%20expand%20cooperation%20in%20agriculture
2019

инвестиция дастурларидан самарали фойдаланиш истикболлари” мавзусида республика илмий-амалий анжуманини. Т.:ТДИУ. 2020 йил 20 октябр.

7. FAO. 2020. Global Initiative on Food Loss and Waste Reduction. Rome, FAO. <http://www.fao.org/3/a-i4068e.pdf>
8. uzdaily.com/ru/search?q=Modern%20agro%20logistics%20centers%20to%20expand%20cooperation%20in%20agriculture 2019
9. <https://supplychaindigital.com/logistics-1/billions-tons-food-wasted-global-supply-chain> 2020